



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/2-сон



Bobir Xo‘jaqul o‘g‘li Qilichov Islomiy banklar, insonlarning moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyati	152
Zarif Oripovich Axrorov Foyda solig‘i vositasida iqtisodiyotni tartibga solish	156
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Аскар Хайдарович Джумаев Иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида бухгалтерия ҳисобини синергетик самарасини ошириш масалалари	163
То‘лқин Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev Qurilish korxonalarida ko‘rsatilgan qurilish xizmatlari bo‘yicha xarajatlar hisobi hamda tahlili	167
Jahongir Ahmadjon o‘g‘li Sagdullayev Yoshlar jinoyatchiligini oldini olish metodikasi tahlili	171
Шараф Урокбоевич Ташматов Интернет савдо хизматларига талабни шакллантирувчи омиллар таҳлили	175
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Саидахроп Гуломов, Мамаюнус Пардаев, Севара Бабаназарова, Хилола Очилова Янги Ўзбекистонда таълим, тарбия ва ақлий меҳнатнинг уйғунлигини таъминлаш	178
Дилбар Хасановна Асланова, Вазира Саидмуродовна Узакова Совершенствования организационно-экономического механизма подготовки конкурентоспособных специалистов с высшим образованием на рынке труда	184
Quvvat Haqnazarovich Aliqulov Oila va badiiy madaniyatni yangi avlod kadrlarini tayyorlashdagi falsafiy jihatleri	189
Фарангис Азамовна Ишанкулова Олий таълим муассасаси имижини шакллантиришнинг ўзига хос жиҳатлари	192
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Бахтли ва комил инсон формуласи. Ҳалол йўл билан топилган маблағ – ўзингизники	197

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Свирко, С. В. Организация бухгалтерского учета в бюджетных учреждениях : учеб. пособие. — К., 2003.
2. Будович, Ю. И. Цифровизация корпоративного учета // Человеческий капитал в формате цифровой экономики : междунар. науч. конф. — М., 2018. — С. 117–125.
3. Карпова, Т. П. Направления развития бухгалтерского учета в цифровой экономике // Известия СПбГЭУ. — 2018. — № 3. — С. 52–57.
4. Лабынцев, Н. Т., Белюнова, Е. А. Цифровая экономика и ее влияние на развитие национальной и международной экономики // Проблемы учета, анализа, аудита и статистики в условиях рынка : уч. зап. — Ростов н/Д, 2019. — Вып. 2.

<p>А.Джумаев</p> <p>Пути повышения синергетической эффективности бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики</p> <p>Аннотация: в данной статье предложены пути совершенствования бухгалтерского учета в соответствии с процессами цифровизации экономики нашей страны, которые превосходят традиционные методы бухгалтерского учета и повышают способность бухгалтера быстрее и эффективнее анализировать данные, обеспечивать рациональную отчетность, а также способы повышения его синергической эффективности.</p> <p>Ключевые слова: цифровизация бухгалтерского учета, модернизация информационных технологий бухгалтерского учета, электронная экономика, синергетический эффект, трансформация систем контроля и управления.</p>	<p>A.Dzhumaev</p> <p>Ways to increase the synergic efficiency of accounting in the digital economy</p> <p>Abstract: this article suggests ways to improve accounting in accordance with the digitalization processes of our country’s economy, which are superior to traditional accounting methods and increase the accountant’s ability to analyze data faster and more efficiently, provide rational reporting, as well as ways to increase its synergistic efficiency.</p> <p>Keywords: digitalization of accounting, IT modernization of accounting, electronic economy, synergistic effect, transformation of control and management systems.</p>
---	---

To‘lqin Ismatulla o‘g‘li Yahyoyev – SamISI katta o‘qituvchisi

QURILISH KORXONALARIDA KO‘RSATILGAN QURILISH XIZMATLARI BO‘YICHA XARAJATLAR HISOBI HAMDA TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada qurilish korxonalari tomonidan ko‘rsatiladigan qurilish xizmatlari bo‘yicha qilingan xarajatlarning tasnifi, xarajatlar hisobi va tahlilini amalga oshirishda faoliyatning alohida xususiyatlari hamda qurilish xizmatlari xarajatlarining milliy va xalqaro standartlar bo‘yicha farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish korxonalari, tahlil, qurilish sohasi, iqtisodiy tahlilning obyekti, xalqaro hamda milliy standartlar, qurilish korxonalarida iqtisodiy tahlilning maqsadi, moliyaviy hisob xalqaro standarti, aksiyadorlik, shirkat, xususiy, qo‘shma va boshqa pudrat qurilish-montaj tashkilotlari.

Kirish. Mamlakatning iqtisodiy barqarorligining oshishi, YAIMning o‘shishi, aholi sonining ko‘payishi, korxonalar sonining o‘sib borishi, mamlakatga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishining ko‘payishi, mamlakatda eksportning ortishi bularning barchasi mamlakatning qaysidir jihatinani yaxshilanayotganligini, o‘zgarayotganligini ifodalab beradi.

Qurilish sohasining yaxshilanishi esa mamlakatning yangilanayotganligini, rivojlanib borayotganligini, aholining uy –joy bilan ta‘minlanish darajasini yaxshilanayotganligini, mamlakat iqtisodiyotida qurilish tarmog‘ining iqtisodiy ahvolini barqarorlashganligini ifodalab berishga xizmat qiladi.

Vaholanki, yashab turgan uyimiz, davolanayotgan sihatgohimiz, tahsil olayotgan ta‘lim maskanimiz, yurgan yo‘limiz, bizga xizmat qilayotgan elektr, tabiiy gaz hamda suv yo‘llari ham qurilish sohasining natijasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyot manbalari tahlili, qurilish sohasida fundamental tadqiqotlar qatorida I.S.Stepanova [1], Arens E.A. [2], DJ.K. Lobbek [3], Serov V.M. [4], Gurkov I.B [5] singari xorijiy olimlarning, M.K.Pardayev[6], N.T.Tuxliyev [7], E.V.Golesheva [8], M. Miraxmedov [9], A.A.Eshtayev [10], K.B.Urazov [11], singari mahalliy iqtisodchi olimlarning qurilish sohasidagi turli masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy-tadqiqot ishida statistik va iqtisodiy tahlil usullari, tahlil, sintez, mavhumiy-mantiqiy tahlil, shuningdek, tanlovli kuzatuv, sotsiologik so'rov, SWOT-tahlil, qiyoslov usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Qurilish korxonalarida xarajatlar 11-son buxgalteriya hisobi xalqaro standarti bo'yicha quyidagicha guruhlanadi¹.

1. shartnoma bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlar;
2. shartnoma qiymatiga taqsimlanadigan xarajatlar;
3. shartnomada keltiriladigan shartlar ostida buyurtmachi tomonidan alohida qoplanadigan xarajatlar.

Muayyan shartnoma bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

1. mehnat haqi xarajatlari va qurilish maydonini kuzatish xarajatlari;
2. material xarajatlari;
3. amortizatsiya xarajatlari;
4. asosiy vositalarni va materiallarni qurilish maydoniga olib kelish va olib chiqish bo'yicha xarajatlar;
5. ijara xarajatlari;
6. konstruktorlik va texnik yordam bo'yicha xarajatlar;
7. kamchiliklarni yo'qotish va kafolatlangan ishlar hajmini bajarish bo'yicha taxminiy baholangan xarajatlar, shu jumladan kafolatlangan xizmat ko'rsatish bo'yicha kutilayotgan xarajatlar;
8. uchinchi tomonlarning da'vo-e'tirozlari.

Shartnoma bo'yicha faoliyatga umuman taaluqli bo'lgan va muayyan shartnoma qiymatiga taqsimlanishi mumkin bo'lgan xarajatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. amalga oshirilgan sug'urta xarajatlari;
2. shartnomaga bevosita aloqasi bo'lmagan konstruktorlik va texnik yordam bo'yicha xarajatlar;
3. qurilish shartnomalari bo'yicha ustama xarajatlari.


Taqsimlanadigan xarajatlar sistematik va ratsional hamda o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan barcha xarajatlarga izchil ravishda qo'llaniladigan usullar yordamida taqsimlanadi. Xarajatlar qurilish ishlari bajarilishining normal sur'atlariga asoslangan holda taqsimlanadi. Qurilish bo'yicha ustama xarajatlari, masalan qurilish bo'yicha ishchilarga to'lanadigan ish haqini hisoblash va to'lov qaydnomalarini tayyorlashga oid xarajatlarni o'z ichiga oladi. Shartnoma bo'yicha faoliyatga umuman taaluqli bo'lgan va muayyan shartnoma qiymatiga kiritilishi mumkin bo'lgan xarajatlar qarzlari bo'yicha xarajatlarni qamrab oladi.

Shartnoma shartlari ostida buyurtmachi tomonidan alohida qoplanadigan xarajatlar shartnomada qoplanishi alohida belgilangan ba'zi umumiy ma'muriy xarajatlarni va tajriba-konstruktorlik xarajatlarini qamrab olishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi milliy standartlari hamda Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi" to'g'risidagi 54-son nizom talablari hamda xalqaro standartlar talablari bo'yicha qurilish korxonalarini tomonidan ko'rsatilgan qurilish xizmati tannarxiga olib boriladigan xarajatlar tarkibi birmuncha farq qiladi.

Ushbu xarajatlar tarkibi bo'yicha ham farqlanadi. Masalan, qonunchiligimiz bo'yicha korxonada qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi xodimlarga ish haqi hisoblashni amalga oshiruvchi ishchiga hisoblangan ish haqi korxonaning ma'muriy xarajati sifatida qaraladi.

¹ 11-son Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti



1-rasm. Shartnoma bo'yicha qurilish korxonalarini tomonidan bajarilgan qurilish xizmatlari tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirib o'tilgan xarajatlar tarkibi bo'yicha ham farqlanadi. Masalan, qonunchiligimiz bo'yicha korxonada qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi xodimlarga ish haqi hisoblashni amalga oshiruvchi ishchiga hisoblangan ish haqi korxonaning ma'muriy xarajati sifatida qaraladi hamda quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Dt: Ma'muriy xarajat (9420) **Kt:** Xodimlar oldida kreditorlik qarzi (6710)

Xalqaro standartlar bo'yicha ushbu hisoblangan ish haqi ustama xarajati sifatida qaraladi.

Bunda buxgalteriya yozuvi quyidagicha berilishi tavsiya etiladi.

1. Ish haqi hisoblandi.

Dt: Qurilish xizmatlari bo'yicha ustama xarajatlari

Kt: Xodimlar oldidagi kreditorlik qarzlari

2. Ustama xarajatlar tannarxiga olib borildi.

Dt: Ko'rsatilgan qurilish xizmati tannarxi

Kt: Qurilish xizmatlari bo'yicha ustama xarajatlari

Milliy hamda xalqaro standartlarning farqli jihatlaridan yana biri bu qurilish xizmatlarida buyurtmachi tomonidan alohida qoplanadigan xarajatdir.

Ushbu jarayon bo'yicha quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Masalan: Buyurtmachi hamda pudratchi tomonidan 100.0 p.b. ga qurilish xizmatlarini amalga oshirish bo'yicha shartnoma imzolandi. Buyurtmachi faqatgina qurilish materiallaridan pishgan g'isht materialini o'zi yetkazib berishi hamda qolgan barcha xarajatlar pudratchi tomonidan amalga oshirilishi kelishib olindi. Smeta bo'yicha barcha xarajatlar 85 p.b. ga teng, shundan 15 p.b. xarajat pishgan g'isht materialiga to'g'ri keladi. Ushbu holda xalqaro standart bo'yicha xarajatlarni tan olish yuzasidan quyidagicha buxgalteriya yozuvi berilishi tavsiya etildi.

1-jadval

Xalqaro standart bo'yicha xarajatlarni tan olish yuzasidan beriladigan buxgalteriya yozuvlari

№	Operatsiya mazmuni	Dt	Kt	Summa
1	Ko'rsatilgan xizmatga qilingan xarajatlar summasiga	Ko'rsatilgan xizmat tannarxi	Ishlatilgan resurs	70 p.b.

2	Buyurtmachi tomonidan qoplanadigan xarajat summasiga	Buyurtmachi oldida debitorlik qarz	Buyurtmachi tomonidan kelib tushadigan maqsadli tushum	15 p.b.
3	Pishgan g'ishtning kelib tushishi	Qurilish materiallari	Buyurtmachi oldida debitorlik qarz	15 p.b.
4	Buyurtmachi tomonidan qoplangan xarajat summasiga	Buyurtmachi tomonidan qoplangan xarajat	Qurilish materiallari	15 p.b.
5	Maqsadli tushumning yopilishi	Buyurtmachi tomonidan kelib tushadigan maqsadli tushum	Buyurtmachi tomonidan qoplangan xarajat	15 p.b.

Ushbu buxgalteriya yozuvlarining berilishi hamda hisobda foydalanilishi korxonaga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

1. Korxonada tomonidan alohida qilingan xarajat summaları aniqligiga erishiladi;
2. Buyurtmachi tomonidan qoplanadigan xarajat summasining qancha, qaysi ko'rinishdagi aktiv sifatida kiritilishi aniqlashtiriladi;
3. Xalqaro standartlar talablariga javob beruvchi hisob shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori, 2020-yil 24-fevral, PQ-4611-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurilish – montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari” to'g'risidagi PQ-4586 sonli qarori-06.02.2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi” PF-6119-sonli farmoni – 28.11.2020.
4. Экономика строительства: Учебник / под общей ред. И.С.Степанова.- 3-е изд., доп. и перераб. - М.: Урайт-Издат, 2004..
5. Арнс Э.А., Дж.К. Лоббек. Аудит. Учебник. М.: Финансы и статистика, 2001.
6. Гусева М.И., Коготкова И.З. Маркетинг в строительстве. Учебное пособие.(Серия «Высшая школа»). – М.: Книжный мир, 2011.

Т.Яхёев	Т.Yakhyoev
Механизмы оценки финансового состояния строительных предприятий	Mechanisms for rating the financial status of construction enterprises
Аннотация: в статье речь идет о классификации строительных предприятий, особенностях процессов их деятельности и особенностях строительных предприятий как объекта экономического анализа.	Abstract: this article is about the classification of construction enterprises, special features of their activity processes and special features of construction enterprises as an object of economic analysis.
Ключевые слова: строительные предприятия, анализ, строительная отрасль, объект экономического анализа, цель экономического анализа в строительных предприятиях, государственные, акционерные, частные, совместные и другие подрядные строительственно-монтажные организации.	Keywords: construction enterprises, analysis, construction industry, object of economic analysis, purpose of economic analysis in construction enterprises, state, joint-stock, private, joint and other contract construction and assembly organizations.

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.